



IMOM AT-TERMIZIY ASARLARIDA FIQH MASALALARINING  
FALSAFIY AHAMIYATI

ФИЛОСОФСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ВОПРОСОВ ФИКХА В ТРУДАХ  
ИМАМА АТ-ТЕРМИЗИ

THE PHILOSOPHICAL SIGNIFICANCE OF FIQH ISSUES IN THE  
WORKS OF IMAM AT-TERMIZI

Murtazayev B.X

"Alfraganus university"

nodavlat olivy ta'lim tashkiloti,

Ijtimoiy fanlar kafedrasi 2-kurs magistranti,

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Imom at-Termiziy asarlarining fiqhiiy asoslari olib berilgan. Shuningdek, muhaddis asarlarida ilgari surilgan hadislar va uning ilmiy tafakkurga ta'siri asoslab berilgan. Shu bilan birga, muhaddis asarlarining ilmiy dunyoqarashga ta'siri falsafiy jihatdan olib berilgan. Qolaversa, uning asarlarining keyingi davr olimlari fiqhiiy asarlariga ta'siri yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** hadis, tadvin etish (tartiblash), marfu (ya'ni payg'ambar allayhissalomga borib bog'lanadigan) hadislar, fiqhiiy masalalar, «Qola ba'zu ahl al-Kufa».

**Аннотация:** В данной статье раскрываются юридические основы трудов Имама ат-Тирмизи. Также обоснованы хадисы, представленные в трудах мухаддисов, и их влияние на научное мышление. В то же время философски раскрывается влияние работ Мухаддиса на научное мировоззрение. Кроме того, подчеркивается влияние его работ на юридические труды более поздних ученых.

**Ключевые слова:** хадисы, тадвин (перестановка), марфу (т.е. хадисы, приписываемые Пророку, да благословит его Аллах и приветствует), вопросы юриспруденции, «Кола ба'зу ахль аль-Куфа».

**Abstract:** In this article, the jurisprudential foundations of Imam al-Tirmidhi's works are revealed. Also, the hadiths presented in the works of muhaddis and their influence on scientific thinking are justified. At the same time, the impact of Muhaddis's works on the scientific outlook is revealed philosophically. In addition, the impact of his works on the jurisprudential works of later scholars is highlighted.

**Key words:** hadith, tadwin (arrangement), marfu (i.e. hadiths attributed to the Prophet, may Allah bless him and grant him peace), jurisprudential issues, «Qola ba'zu ahl al-Kufa».



Termiziy Abu Iso, Imom Termiziy (824, Termiz - 892, Bug' qishlog'i, hozirgi Sherobod tumani) - buyuk muhaddis. Sullamiy deb nisbat berilishiga sabab bobolaridan biri sullam degan arab qabilasiga do'st tutingan, Bug'iy deyilishiga sabab o'sha vaqtdagi But nomli qishloqda vafot etib, shu yerga dafn qilingan. Umrining oxirida ko'zi ojiz bo'lib qolgani uchun ad-Darir taxallusi bilan ham atalgan. Termiziyning yoshlik yillari Termiz shahrida o'tgan, dastlabki ma'lumotni ham shu yerda olgan. Termiziy Abu Isoning oilasi va ota-onasi haqida manbalarda aniq ma'lumotlar keltirilmagan, faqat tarixchilar uning: «Bobom asli marvlik edi, u kishi Lays ibn Sayyor zamonida yashagan, so'ng u yerdan Termizga ko'chib kelganlar», - degan fikrini keltirish bilan chegaralanadilar<sup>6</sup>.

At-Termiziy o'z asarlari uchun ko'pgina foydali ma'lumotlarni al-Buxoriy bilan bo'lgan uchrashuvlarida olganligini yozadi.

Hadis ilmiga bag'ishlangan asarlarda ahkom masalalarini o'rghanish hijriy ikkinchi asrning o'rtalaridan, Imom Molik ibn Anas davridan boshlangan edi. Mana shu paytdan boshlab hadislarni tadvin etish (tartiblash) fiqhiy boblarga asoslanib amalga oshirilib, shu maqsadda muvattot tartibida asarlar bo'la boshladi. Masalan, al-Qoziy Iyod o'zining «al-Mudorak» nomli asarida «birinchi bo'lib «al-Muvatto» asarini yaratgan Abdullaziz ibn Abdulmalik ibn al-Majishun» deb yozgan edi.

Hadislardagi fiqhiy masalalarni tadqiq etishda Molik ibn Anasga ergashgan ayrim mualliflar (masalan, Ibn Abu Shayba, Abdurrazoq ash-Shofi'y) ham shu yo'sinda asarlar tasnif etdilar. Mana shu mualliflar asarlarini, shuningdek, ahl ar-rayning fiqhiy masalalardagi fikr-mulohazalarini har tomonlama chuqur o'rgangan, tadqiq etgan Imom al-Buxoriy o'zining «as-Saxiyh» asarida fiqhiy masalalarga alohida e'tibor berib uni batamom yuksak pog'anaga ko'tardi<sup>7</sup>. Imom al-Buxoriydan keyin bu sohaga qo'l urgan muhaddislardan biri uning shogirdi Imom at-Termiziy hisoblanadi. Bu paytga kelib hadislarda fiqhiy masalalarda qator asarlar yaratilgan va muayyan darajada taraqqiy etgan edi. Mana shunday holatda Imom at-Termiziy o'zining shoh asari «al-Jomi»da o'ziga xos uslubni qo'llaydi. Muallif fiqhiy masalalar va ahkomlarni o'z abvoblari (boblari) mazmuni jumlasiga kiritadi. Fiqh ilmi olimlarining fikr-mulohazalarini keltirib turli-tuman mazhablardan ogoh qildi, ba'zi hollarda ulardan eng maqbولي va afzallarini ajratib ko'rsatdi. O'z asarlarida ahl al-ilm nazdida qabul bo'lgan hadislarga tayangan holda fikr yuritdi.

Fiqhiy masalalarda Imom at-Termiziy uslublarini umumlashtirgan holda quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

<sup>6</sup> O'rta asr sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy-falsafiy merosi ensiklopediyasi. - Samarqand. Imom Buxoriy xalqaro markazi, 2016. - B. 645-649.

<sup>7</sup> Al-Xatib al-Bag'dodiy. Tarixi Bag'dod, 1997. - B.19.



- tarojumlarga e'timod qilish;
- bob mazmunida ulamo va roviylar fikrini hadislarda ifoda etish;
- g'oyalar o'rtasida afzallarini alohida ko'rsatish;
- boblarni ulardan kelib chiqadigan ahkomlarga asosan turlarga bo'lish.

Imom at-Termiziyning «al-Jomi» asari bahsli masalalarni talqin qilishda yirik manba hisoblanadi. U ayniqsa qadimiy (qariyb unutilayozgan) ta'limotlarni o'rganish masalasida tengi yo'q asarlardan biri sifatida tan olingan. Masalan, Imom al-Avzo'iy, Iroqda yashagan mashhur imomlardan Sufyon as-Savriylarning mazhabiy ta'limotlari uzoq muddat amalda joriy bo'lган edi.

Ibn Rohvayh nomi bilan mashhur bo'lган xurosonlik olim Imom Ishoq Ibrohim al-Hanzaliy, movarounnahrlik alloma Abdulloh al-Muborak al-Marvaziy mazhablarini o'rganishda ham Imom at-Termiziy asarining ahamiyati beqiyos edi. Bu asar nafaqat qator mazhabiy ta'limotlar, ayni vaqtda ulamolar o'rtasidagi ixtilofiy masalalarni har tomonlama o'rganishda ham alohida ahamiyatga molik edi. Shu bois bu asar haqida «Ixtilofli masalalar haqida bizgacha yetib kelgan eng qadimiy manba» deb alohida ta'kidlanadi. Imom at-Termiziy asarining o'sha mazhab sohiblari va peshvolari yashagan davrga vaqt jihatdan yaqinligi asarga ishonchli manba sifatida qarashni taqozo etadi. Bu hol ayniqsa ilm ahllari va tadqiqotchilar uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, asardagi naqlarda imkon boricha kamroq xatoga yo'l qo'yilib, keyin yozilgan asarlarga nisbatan unga afzallik beriladi.

Imom at-Termiziyning «al-Jomi» asarida fiqhiy masalalar ham ifoda etilgan bo'lib, ularni tadqiq etishda uchta muhim jihatga e'tibor berishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

*Birinchi masala* - Imom at-Termiziyning fiqhiy yo'nalishi.

*Ikkinci masala* - u rivoyat qilgan hadislarda mazhabiy isnodlarning o'rni.

*Uchinchi masala* - fiqhiy masalalar ifodasi.

Mana shu masalalarni batafsil ko'rib chiqish at-Termiziyning fiqhiy masalalardagi qarashlarini to'liq ifoda etadi.

Hijriy ikkinchi asrni islom dinida fiqhiy masalalarda uyg'onish davri, desak hech bir mubolag'a bo'lmaydi. Chunonchi, ayni shu paytda ijтиҳод degan masala paydo bo'lib, bu sohada turli mazhablarning ashoblari - yirik ulamolar yetishib chiqqan.

Ijtihod - Qur'oni karim va payg'ambar alayhissalom hadislariga asoslangan holda davr taqozosini hisobga olib, jamiyat taraqqiyoti va ma'naviyati ravnaqiga xizmat qiladigan foydali g'oya va mafkuralar yaratish, muammolarni hal etishning maqbul, yangi yo'llarini topishdir. Bu hol, albatta, islom dinining o'ziga xos xususiyatlaridan hisoblanadi. Binobarin ilm-fan taraqqiyotidagi o'zgarishlarni



teran anglab shariat ahkomlarini zamonga mos ravishda talqin qilish har qanday davrda ham xalqimizning har tomonlama taraqqiy etishiga sezilarli vosita bo'lgan.

O'sha davrdan boshlab ijтиҳод ахлининг тутган ўли (тариқати) асосан иккি гурӯҳга ажралган edi: аhl ar-ray тариқати ва аhl al-hadis тариқати. Аhl ar-ray тариқатининг маркази Iроқда, аyniqsa al-Kufa va Basrada bo'lib, uning уламолари аhl ar-ray деб атала бoshlandi. Аhl al-hadisning мактаби al-Hijoz (Makka, Madina)da bo'lib ular уламоларига аhl al-hadis деб nom berildi. Har тоифанинг yetakchi имомлари bo'lib, ularнинг izdoshlari o'z мазhablarining afzalligi va g'alabasi yo'lida jiddi-jahd ko'rsatardilar va da'vat yo'li bilan yangi tarafdorlarni topib, ular sonlarini ko'paytirishga intilardilar. Hijriy uchinchi asrda hadis ilmida olti sahih kitoblarning mualliflari, shu jumladan Imom at-Termiziyy yashab ijod qildi. Bu davrda musulmonlar o'rtasida mashhur имомлarning мазhablariga qo'shilish, мазhabiy taqlid paydo bo'ldi. Bunda taqlidchilar muayyan bir имом мазhabini ixtiyor etib, uni har tomonlama qo'llab-quvvatlab tarafkashlik qilar, ko'p hollarda esa ular o'rtasida qizg'in bahslar, kurashlar ham sodir bo'lardi. Mana shu tariqa ular o'rtasida ixtilof kuchaya boshladi.

Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziyyga o'xshash nufuzli muhaddislar Qur'oni karim, payg'ambar hadislari, sahobai kiromlarning asarlarini butun mazmun-mohiyati bilan egallaganliklari tufayli, ularda ijтиҳodiy qarashlar mavjud bo'lsa-da, lekin ular taqlidchilarga mansub emasdilar. Ular o'z ijтиҳodiy g'oyalari haqida baralla gapirib, shunga amal qilardilar, ayniqsa ixtilofli masalalar paydo bo'lgan vaziyatlarda bu holatga ko'proq rioya qilardilar<sup>8</sup>.

Turli мазhablar va g'oyalarga munosabat masalasida Imom at-Termiziyning tutgan mavqeい payg'ambar alayhissalomning hadislari va faqat dalil-isbotlar bilangina xulosa chiqarishga asoslangan edi. Albatta, bunday hollarda faqat sahiyh hadislар va eng kuchli dalil asosiy rol o'ynar edi. U o'z ustozlari - eng avvalo Imom al-Buxoriyning va boshqa hadis ilmidagi уламолarning ta'sirida аhl ar-ray мазhabiga emas, аhl al-hadis yo'lida sobitqadamlik bilan fikr yuritdi, uni chuqur tahqiq va tadqiq (istinbot) etish orgali o'z fikr-mulohazalarini bildirdi.

Imom at-Termiziyy ijodining yana bir o'ziga xos jihatи shundaki, u аhl ar-ray haqida gapirar ekan, ular мазhablarini bayon kilish uchun o'z asarida «qola аhl al-Kufa» (Kufa ahli degan) yoki «Qola ba'zu аhl al-Kufa» («ahl al-Kufadan ba'zisi degan») kabi iboralarni ko'p ishlatadi.

Imom at-Termiziyy asarida ko'p uchraydigan iboralardan yana biri «ashobuno» («bizning ashoblarimiz») iborasidir. Bu umumlashgan atama bilan at-Termiziyy

<sup>8</sup> Al-Imom at-Termiziyy. Al-Jomi'.1998. 324-bet.



Molik ibn Anas, Muhammad ibn Idriys ash-Shofe'iy, Ahmad ibn Hanbal, Ishoq ibn Rohvayh kabi fiqh ilmining mujtahidlaridan bo'lgan ahl al-hadisni nazarda tutgan<sup>9</sup>.

Hadis ilmining yirik allomasi sanalgan Imom at-Termiziy ulamolarning so'zlari va ularning fiqhiy ta'lilotlarini faqat hadislarga xos bo'lgan ishonchli isnodlar bilangina keltiradi, ularga tayanib ilmiy xulosalar chiqaradi. Binobarin, mazhab sohiblaridan naql etiladigan fikr-mulohazalarni bilihda isnodlar katta ahamiyat kasb etardi. Imom at-Termiziy fiqhiy isnodlarni Sufyon as-Savriy, Muhammad ibn Usmon al-Kufiy, Ubaydulloh ibn Muso al-Abasiy, Maktum ibn Abbos at-Termiziy, Muhammad ibn Yusuf al-Firyobiydan naql qilgan<sup>10</sup>. Bir qancha buyuk muhaddislar bu sohada barakali ijod qilgan bo'lib, ulardan Imom al-Buxoriyning ustozি Ali ibn Abdulloh al-Madiyniy, Imom Ahmad ibn Hanbal, Imom al-Buxoriy, Muslim ibn al-Hajjoj, Imom at-Termiziy, Ibn Abu Hotam, ad-Doruqutniylarni zikr qilish mumkin. Mana shu mualliflarning asarlaridan Imom ad-Doruqutniyning musnadlarga asoslanib tartib berilgan o'n ikki jildlik illatli hadislarga bag'ishlangan asari alohida o'rinn egallaydi<sup>11</sup>.

Imom at-Termiziy illatli hadislarga bag'ishlab ikki asar yaratgan bo'lib, ular «Al-Ilal as-sag'iyr» va «Al-Ilal al-kabiyr yoki al-mufrad» nomi bilan ataladi. «Al-Ilal as-sag'iyr» asarini Imom at-Termiziy «al-Jomi'»ning xotimasi sifatida yaratgan. «Al-Ilal al-kabiyr yoki mufrad» esa alohida mustaqil asar bo'lib, unda birinchi asariga kirmagan illatli hadislar keltirilgan.

### ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'rta asr sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy-falsafiy merosi ensiklopediyasi. - Samarqand. Imom Buxoriy xalqaro markazi, 2016. - B. 645-649.
2. *Al-Xatib al-Bag'dodiy*. Tarixi Bag'dod, 1997. 2-jild, 19-bet.
3. *Al-Imom at-Termiziy*. Al-Jomi'. 1998. 324-bet.
4. *Sharh at-Termiziy li-abi at-Tayyib al-Madiniy*, 1-jild, 112-115-betlar.
5. *Az-Zahabiy*. Siyar, 12-jild, 296-bet; Miyzon al-e'tidol, 3-jild, 198-bet.
6. *Al-Kattoniy*. Ar-Risola al-mustatrafa. 1995. 11-bet.

<sup>9</sup> Sharh at-Termiziy li-abi at-Tayyib al-Madiniy, 1-jild, 112-115-betlar.

<sup>10</sup> *Az-Zahabiy*. Siyar, 12-jild, 296-bet; Miyzon al-e'tidol, 3-jild, 198-bet.

<sup>11</sup> *Al-Kattoniy*. Ar-Risola al-mustatrafa. 1995. 11-bet.